O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

«SHARQSHUNOSLIK SOHALARINI TADQIQ ETISHNING DOLZARB MASALALARI» MAVZUSIDA YOSH SHARQSHUNOSLARNING AKADEMIK UBAYDULLA KARIMOV NOMIDAGI XIX RESPUBLIKA ILMIY–AMALIY KONFERENSIYASI

TO‘PLAMI

«FAN»
Toshkent – 2024

UO‘K 314.151(575)(08)
KBK 607(543)
Y 83

«Sharqshunoslik sohalarini tadqiq etishning dolzarb masalalari» mavzusida Yosh sharqshunoslarning akademik Ubaydulla Karimov nomidagi XIX respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi to‘plami. – Toshkent: «Fan» nashriyoti, 2024. – 286 b.

Taqrizchilar:
O‘ktambek Sultonov – tarix fanlari doktori, professor.
Sherali Qo‘ldoshev **–** tarix fanlari nomzodi, dotsent.

Tahrir guruhi:
Laziz To‘rayev – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), Akbar Idiyev, Maftuna Mirzayeva, Sherzod Karimov, Dostonjon Tojiyev, Farrux Kamoliddinov.

Ushbu to‘plamda qadimgi davrdan bugungi kungacha bo‘lgan sharqshunoslik sohasidagi dolzarb masalalar, tarix fani oldida turgan muammolar va ularning yechimlari, tarixshunoslikka oid tadqiqotlar, til, adabiyot hamda manbashunoslik masalalari, Sharq rennesansi davri allomalari ilmiy merosining o‘rganilishi, qadimiy yozma manbalarning muomalaga kiritilishi kabi masalalarga qaratilgan tadqiqotlar o‘rin olgan. To‘plam sharqshunoslar, tarixchilar, adabiyotshunoslar, tadqiqotchilar va keng kitobxonlar ommasi uchun mo‘ljallangan. To‘plam tarkibidan o‘rin olgan maqolalar mualliflarning ilmiy tadqiqot natijalari va shaxsiy ilmiy qarashlarini o‘zida aks ettiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti Ilmiy kengashining 2024-yil 3-maydagi 5-sonli majlisi qarori asosida nashrga tavsiya etilgan.

© Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti.
© Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti.
© «Fan» nashriyoti, 2024.

ISBN 978-9910-9030-5-2

XVI-XVII ASRLARDAGI HUKM HUJJATLARINING STRUKTURAVIY JIHATLARI

MIRZAYEVA Maftuna Murodillo qizi
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti
3-bosqich tayanch doktoranti
ORCID: 0000-0003-3103-242X

STRUCTURAL ASPECTS OF ḤUKM DOCUMENTS DURING THE XVI-XVII CENTURIES

MIRZAEVA Maftuna
Al-Biruni Institute of Oriental Studies of
Uzbekistan Academy of Scinces, Doctoral student
ORCID: 0000-0003-3103-242X

Abstract. *The study of historical documents plays a vital role in understanding the past. Analyzing and describing the outward appearance and internal formulary structure of documents is an important step towards their correct understanding. This auxiliary aspect of diplomatic studies does not only help to read a document, but also to ascertain or verify missing information and dates. In this research, we focus on a specific category of documents: ḥukm documents from the XVI-XVII centuries. Our investigation specifically examines Persian-language ḥukm documents associated with the Karaskan Sayyids, a notable family in the Fergana Valley. The document’s structural composition underwent analysis, drawing insights from historical diplomatic research in Central Asia.*

Hukm hujjatlari O‘rta Osiyo musulmon diplomatikasida qozining biror masala yuzasidan chiqargan qarori yoki hukmdor farmoni sifatida tushunishimiz mumkin [4: 138; 5: 80]. Bu yerda qonunchilik aktlarining bir turi sifatidagi hukmdor farmoni nazarda tutilgan holda tadqiq etiladi. O.D. Chexovich O‘rta Osiyo diplomatikasiga oid hujjatlarning 34 ta turini sanab o‘tgan. Bular orasida hukm va hukmnoma nomlari bilan qayd etadi [5: 80]. O‘rta Osiyo qonunchilik aktlariga oid ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirilgan. Lekin ular orasida, hukmdor farmoni sifatidagi hukm hujjatlarining tuzilishi borasida tadqiqotlar mavjud emas. Tarixiy hujjat ma’lumotlarini tahlil etishdan oldin uning paleografik va diplomatik tadqiqini amalga oshirish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Zero, bu hujjat ma’lumotlar borasida to‘g‘ri xulosa chiqarish uchun zarur. Ko‘pgina hollarda, hujjatlarning tarkibiy tuzilishini bilish aslida hujjatdan aynan qaysi ma’lumotni olishimiz kerakligini aniqlashda yagona yo‘l bo‘lishi mumkin. Shu sababdan ushbu maqola XVI-XVII asrlarga oid hukm hujjatlari tuzilishi tahliliga bag‘ishlangan. Tanlangan

muammoni tahlil etish uchun Farg‘ona vodiysidagi Koroskon sayyidlari xonadoni vakillariga tegishli hukm hujjatlari jalb etilgan.


Koroskon sayyidlariga tegishli hujjatlarning O‘zbekiston Milliy Arxivi fondida saqlanayotgan qismi asl hamda O‘zRFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondidagi “Yorliqlar to‘plami” nomi ostidagi hujjatlar ko‘chirilgan nusxa bo‘lib, turkiy va forsiy tillarda bitilgan. Asl nusxadan ko‘chirma olish XIX asrning 70-yillaridan boshlangan [1: 69]. “Yorliqlar to‘plami” o‘tgan asrning 60-yillarida A. Juvonmardiyev tarafidan tadqiq etilgan. Ushbu ishda fors tilidagi hujjatlar tarjimasini berishda A. Juvonmardiyev tadqiqotiga murojaat qilindi [1].

XVI-XVII asrlarga oid hukm hujjatlari umumiy hisobda 14 tani tashkil etadi. Hujjatlarning barchasi fors tilida. Shulardan, to‘rttasi asl nusa, to‘qqiztasi ko‘chirma nusxadagi hujjatlar hisoblanadi. Tadqiqotimiz davomida asl nusxadagi hujjatlar orasidan ko‘chirma nusxadagi hujjatlarning asli mavjudligini aniqlashga ham harakat qildik. Hujjatlar attributlari, ya’ni hujjat adresant va adresati, berilgan vaqti, muhrlari yordamida 4 ta ko‘chirma nusxadagi hujjatning asl nusxasi ham borligi anglashildi. Shuningdek, 1 ta asl, 5 ta ko‘chirma nusxadagi hujjatlar yagona nusxada ekanligi aniqlandi (*1-jadval*). Asl nusxadagi hujjatlarning ayrimlari juda yomon ahvolda yetib kelganligi bois ularning ko‘chirma nusxalar orasida mavjudligi aniqlashda ham qiyinchilik keltirib chiqaradi. Masalan, 74-yig‘ma jildda saqlanayotgan hujjat qog‘ozining chap tomon yirtilgan, uchinchi va beshincha qatorlarida ham yirtilgan joylari mavjud. Shuning uchun, bu qismdagi matnlarni tiklash imkonsiz. Shuningdek, muhrlar ham o‘qib bo‘lmaydigan holda [7: 74 y.j.].

O‘zbekiston Milliy arxivi fondi (4 ta hukm hujjati)		**Abu Rayhon Beruniy nomidagi Shaqrshunoslik instituti fondi (9 ta hukm hujjati)**	
Hujjat raqami	**Berilgan vaqti**	**Yig‘ma jild raqami**	**Berilgan vaqti**
-		№ 56	956/1549-50
-		№ 80	1004/1596
-		№ 112	1016/1607-08
№ 46	1017/1608-09	№ 77	1017/1608-09
№ 54	1039/1630	№ 64	1039/1630
№ 53	1039/1629-30	№ 66	1039/1629-30
-		№ 76	1053/1643-44
№ 58	1094/1682-83	№ 72	1094/1682-83
-		№ 121	
№ 74	-	-	

1-jadval.
Koroskon sayyidlari hukm hujjatlari

Hukm hujjatlari boshqa qonunchilik aktlariga xos o‘ziga xos shaklda rasmiylashtirilgan. Bular matn hamda matning tepa va o‘ng tarafidan bo‘sh qoldirilgan hoshiya qismlaridir. Hoshiyada invokatsiya, muhrlar va qaydlar o‘rin olgan (*1-rasm*). Qaydlar ba’zan muhr ustiga ham bitilgan (*2-rasm*) [7: 54-y.j.]. Hujjatning asosiy matni matn uchun ajratilgan joyga sig‘magan holda o‘ng tomon hoshiyasida yozilgan (*3-rasm*) [7: 58-y.j.]. Pastki qismiga qarab matn oralig‘i zichlashib borgan. Har bir qator oxiridagi so‘zlar ustma-ust yuqoriga qaratib yozilgan.



1.1-rasm *1.2-rasm* *1.3-rasm*

1-rasm.
Hukm hujjatlarining tuzilish shakli
***A** – muhr, **B** – muhr ustiga yozilgan matn.*

Hukm hujjatlari matn tarkibiy tuzilishini *protokol, asosiy qism va esxatokol (yakuniy protokol)* qismlariga ajratgan holda tahlil qildik. Ayni vaqtda bu qismlarning o‘zi ham bir nechta bo‘limlardan iborat. Ba’zi hukm hujjatlari invokatsiya qismi mavjud bo‘lmasligi bilan yuqoridagi tarkibdan farq qilishi mumkin (*3-jadval*) [7: 58-y.j.; 6: 72-h.]. Biz tadqiq etgan hujjatlarda *invokatsiyada* faqat *Ḥuwa (U)* jumlasi ishlatilingan. Asosiy *qism “ḥukme āliy ṣāder shud ke (oliy hukm sodir bo‘ldiki)”* iborasi bilan boshlanadi. Ushbu ibora hukm hujjatini boshqa qonunchilik aktlaridan arjatib turadigan asosiy jihatlardan biri hisoblanadi. Kirish jumlasidan so‘ng hukm nima maqsadda berilayotganligi va ko‘rsatmalar bayoni beriladi. Asosiy matn berilayotgan hukmdan chetga chiqishga ta’qiqni ifodalovchi doimiy ishlatilinadigan *“khelāf nawarzand (xilof qilmasinlar)”, “taqṣīr nanamāyand (nuqsonga yo‘l qo‘ymasinlar)”* jumlalari bilan tugaydi [6: 64, 66, 72, 76, 80-h.,]. Biz ko‘rgan misollarda sana odatda yilning o‘zi berilgan, faqat uch holatdagina yil va oy birgalikda qayd etilgan [7: 54-y.j.; 6: 64, 80-h.]. Hukm beruvchi shaxsga ta’alluqli muhr ko‘p hollarda invokatsiyadan keyingi birinchi va ikkinchi qatorlar oralig‘ida o‘ng tarafga bosilgan. Muhrlar bodomsimon va dumaloq shaklda. Asl nusxadagi hujjatlarda muhrlar yomon holda bo‘lganligi uchun,

muhr matnini to‘liq o‘qish imkonsiz. Ko‘chirma nusxalarda esa nechta muhr bosilganligi asosiy matndan so‘ng yozilgan [6: 56, 64, 66, 72, 76, 77, 80, 121-h.]. Yuqoridagi tarkibda hukm hujjatlarini tarkibiy tuzilishini tahlil etishni 2 va 3-jadvallar asosida ko‘rsatishga harakat qildik.

Protokol ***Invokatsiya***	
(1) U!	(1) هو
Asosiy qism ***Kirish iborasi***	
(2) Oliy hukm sodir bo‘ldiki,	(2) حمک عالی صادر شد که
Berilish maqsadi	
(3) Qadimiy dasturga ko‘ra, Koroskon mavzesi qoziligini (4) haqiqatpanoh janob Kamoliddin-xo‘jaga niyoz tariqasida shafqat qildik. (5) Axsikat viloyati qoziligini yuqorida ishorat qilinganga maxsus bilib, (6) hech kim, [biror bir] tirik jon daxl qilmasinlar va zarar-zahmat yetkazmasinlar,	(3) چون قضای موضع کرسکان را بدستور قدیم (4) بطریق نیاز بجناب هقایق پناه کمال الدین خواجه شفقت نمودیم (5) می باید که قاضیان ولایت اخسکت مخصوص مشارالیه دانسته (6) هیچ کس بلکه آفریده دخل نکنند و ضرر زحمت نرسانند
Sanksiya	
(7) [bu nishonga] xilof qilmasinlar! Ahd qilingan deb bilib, bu xususda nuqsonga yo‘l qo‘ymasinlar!	(7) خلاف نورزند در عهده دانسته در این باب تقصیر ننمایند
Esxatokol ***Sana***	
(8) Sana 1039/1629-30	سنه ۱۰۳۹

2-jadval [7: 53-y.j.]

Asosiy qism ***Kirish iborasi***	
(1) Hukmi humoyun sodir bo‘ldiki,	(1) حکم همایون صادر شد که
Berilish maqsadi	
ayni zamonda (2) Karaskon podshohlari va fuqarolari podshohona inoyat (3) va xusravona iltifotdan bahramand bo‘lib, bilsinlarki (4) sizning davlatxohligingiz haqida bizning porloq huzurimizga (5) yetib keldi. Bag‘oyat inoyatimiz ham siz haqingizda (6) boshqa-chadir. Inshoolloh, iltifot alomati (7) ma’lum bo‘ladi. Biror kishiga xor qilmaymiz. Ba’zi olomon, (8) telba va tentakka o‘xshaganlar sizlarga jabr-	در ین ولا چون (2) پادشاهان و فقراء کرسکان از عنایت پادشاهانه (3) و التفات خصروانه بهرمند بوده بدانند که (4) از انچه دولتخاهی شمایان بعرز انورای ما (5) رسیده عنایت به غایت ما هم در باره شمایان (6) نوع دیگر کردید انشاءالله علامت التفات (7) معلوم میشود بکسی خار نخواهیم کردن بعض المان (8) و تیلبا و تینتک قیاس شمایان تعدی بکند (9) ابا ادب او را (10) بدهند

zulm qilsa, (9) ibo [va] adabini (10) berib qo‘ysinlar! Bizdan xotiringiz jam bo‘lsin!	خاطر از ما (11) جمع باشد
Sanksiya	
Xilof (12) qilmasinlar!	خلاف (12) نورزند
Esxatokol ***Sana***	
Sana 1094/1682-83	سنه ١٠٩٤

3-jadval [7: 58-y.j.]

Xulosa sifatida shuni qayd etish lozimki, XVI-XVII asrga oid qonunchilik aktlarining bir turi sifatidagi hukm hujjati matn tuzilishi ushbu turdagi boshqa hujjatlardan ajralib turadi. Mazkur hujjatlarni tadqiq etish nafaqat davr ish yuritish tizimini tadqiq etishda, balki o‘rganilayotgan davr ijtimoiy-iqtisodiy tarixini tadqiq etishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Biz qo‘limizdagi hujjatlar asosida hukm hujjatlarining o‘ziga xos tarkibiy tuzilish va matn xususiyatariga ega ekanligini ko‘rib chiqdik. Albatta yangi hujjatlar asosidagi keyingi tadqiqotlar biz ko‘rib chiqqan jihatlarni yanada to‘ldirishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Жувонмардиев А. XVI–XIX асрларда Фарғонада ер-сув масалаларига доир. – Тошкент, 1965.
2. Казаков Б.А. Документальные памятники Средней Азии. – Ташкент. 1987.
3. Султонов Ў.А. Мусулмон мамлакатлари дипломатикаси. – Тошкент, 2019.
4. Султонов Ў.А. Тошкент вақф мулклари тарихи: тарихий ҳужжатлар тадқиқи ва талқини (1507-1917). – Тошкент, 2021.
5. Чехович О.Д. Задачи Среднеазиатской дипломатики // Народы Азии и Африки. – Москва, 1969. №6. С. 75-88.
6. Yorliqlar to‘plami. O‘zRFA ShI qo‘lyozmasi, inv. № 1644.
7. O‘zbekiston Milliy Arxivi. I-323-jamg‘arma, 2-ro‘yxat, 46, 53, 54, 58, 74-yig‘ma jildlar.

MUNDARIJA

So‘zboshi 3

MANBASHUNOSLIK, TIL VA ADABIYOT

J. Özlem Oktay Çerezci. WOMEN ACCORDING TO THE ART WORKS OF UZBEKISTAN GOKTURK PERIOD..... 5

Ismatova Nargiza Adxamovna. XIX ASR IKKINCHI YARMI – XX ASR BOSHLARI BUXORO AMIRLIGIDA VAQF SUBYEKTLARI HOLATI 12

Rahimov Komiljon Rahmatovich. XOJA ORIF REVGARIY VA UNING «ORIFNOMA» ASARI QO‘LYOZMA NUSXALARI HAQIDA 19

Usmonov Ibrohim Sobirovich. HAKIM TERMIZIYNING “AL-FURUQ” KITOBIDA QIYOS – FIQHIY DALILI BAYONI 32

To‘rayev Laziz Abdivali o‘g‘li. “RABI’ AL-ABROR” ASARINING TARKIBIY TUZILISHI VA UNING MANBALARI..... 38

Saishanhuli W. TRANSLATION AND STUDY OF THE LITERATURE OF ABAY IN CHINESE 50

Abdullaev Botirjon. ABU RAYHON BERUNIYNING “TAFHIM” ASARI NUSXALARINING TOSHKENT VA DUSHANBE FAKSIMIL NASHRLARI HAQIDA 63

Agzamova Muhabbatxon Mirtoxirovna. “AL-KOMIL FIT-TARIX” ASARINING MANBAVIY ASOSLARI 72

Axmatov Amonkeldi. BUXORO ADABIY MUHIITINI O‘RGANISh MANBALARI 76

Baqoyev Umidjon Shuhrat o‘g‘li. MUHAMMAD TOLIBNING “MATLAB UT-TOLIBIN” ASARI ASHTARXONIYLAR VA BOBURIYLAR SULOLASI DIPLOMATIK MUNOSABATLARINI O‘RGANISHDA MUHIM MANBA SIFATIDA 80

Burgutxonov Saidumarxon. IBN HAZM ANDALUSIYNING “AL-FISOL” ASARIDA ISLOMDAGI YO‘NALISH VA FIRQALARNING YORITILISHIDAGI O‘ZIGA XOSLIKLAR 84

Diniqulov Abror Gulboy o‘g‘li. SHART MAYLIDAGI ARAB MAQOLLARINI O‘ZBEK TILIGA TARJIMA QILISH USULLARI 89

Jumaniyazov Mansur Davlatbayevich. ZIYOVUDDIN MAKKIY XORAZMIYNING «KIFAYATU-N-NAHV FI ILMI-L-E’RĀB» ASARINING TARKIBI 93

Ismoilov Mas’udxon Maxdievich. XOJA MUHAMMAD PORSONING “TAHQIQOT” ASARIDA KALOM VA TASAVVUFNING NAZARIY MASALALARI UYG‘UNLIGI 108

Mirzayeva Maftuna Murodillo qizi. XVI-XVII ASRLARDAGI HUKM HUJJATLARINING STRUKTURAVIY JIHATLARI 114

Murodova Risolat Davron qizi. MUZEYLARDA AMALIY SAN’AT BUYUMLARINING KONSERVATSIYA VA RESTAVRATSIYA ASPEKTLARI 119

Nasirillayeva Nodirabegim Furqat qizi. BIBLIOGRAF OLIM ABDULLA NOSIROV VA UNING “BILKAT” ASARI HAQIDA 125
Oripov Davronbek. “O‘G‘UZNOMA“DAGI OYQOG‘ON OBRAZI VA UNING “KITABI DADAM QO‘RQUD”DAGI OBRAZLARGA TA’SIRI 129
Ravshanov Alijon. ZAMONAVIY MOLIYAVIY MASALALARGA BAG‘IShLANGAN FIQHIY ASARLAR TAHLILI 134
Samsakova Husniyaxon Xalxodjayeva. BOBOXONOVLAR SHAXSIY KUTUBXONASIDAGI QO‘LYOZMALARNING DASTLABKI TAHLILI 142
Sirojiddinova Maftuna Baxodirovna. ARABSHOHIYLAR SAROY DEVONIGA TEGISHLI QONUNChILIK AKTLARI (dastlabki tahlil natijalari) 147
Sulaymonova Hulkar Mo‘minjonovna. “AR-RASAIL” ASARINING GERMANIYA FONDLARIDA SAQLANAYATGAN QO‘LYOZMALARI XUSUSIDA 153
Umaraliyev Sherzodjon Abdulaxat o‘g‘li. SIROJUDDIN O‘SHIY “FATOVOI SIROJIYA” ASARIGA MUROJAAT ETGAN HANAFIY MAZHABI MANBALARI 159

TARIX VA TARIXSHUNOSLIK MASALALRI

Hulstine Matthew. CONVERGING NARRATIVES: THE SIGNIFICANCE OF ‘ALIMQUL’S FALL ..165
Azimov Xurshid. QADIMGI XITOY MANBALARIDA MARKAZIY OSIYO DAVLATLARINING JOYLASHUV “XARITASI” 171
Ahmedova Dilafruz. BUXORO AMIRLIGI DIPLOMATIK MUNOSABATLARINING “INSHO” MAJMUALARIDA YORITILISHI 175
Idiyev Akbar Avaz o‘g‘li. SHAYBONIYLAR DAVRI SIYOSIY JARAYONLARIDA ETNIK BIRLIKLARNING ARALASHUVIGA DOIR 180
Kamoliddinov Farrux Burxoniddin o‘g‘li. MARKAZIY OSIYO RESPUBLIKALARINI FORS KO‘RFAZI ARAB DAVLATLARI BILAN ALOQALARINING QAYTA BOSHLANISHI TARIXIGA NAZAR 185
Karimov Sherzod Shavkat o‘g‘li. TEMURIYLAR DAVLAT BOSHQARUVIDA XOJA MAJDUDDIN MUHAMMADNING TUTGAN O‘RNI 189
Karimova Miyassar Jamoldinovna. O‘RTA OSIYOLIK SAVDOGARLARNING SHARQ MAMLAKATLARI BILAN SAVDO ALOQALARI 196
Ostonov Jahongir Davlatovich. FRANSUZ SHARQSHUNOSI POL PELYONING ILMIY FAOLIYATIGA NAZAR 205
Pilipchuk Yaroslav Valentinovich. ГОСУДАРСТВЕННОСТЬ И ЭТНИЧНОСТЬ УСУНЕЙ 210
Tojiyev Doston Beknazar o‘g‘li. TURKIY DAVLATLAR TASHKILOTI DOIRASIDAGI HAMKORLIK: ILMIY-MADANIY HAMDA SIYOSIY SOHALAR MISOLIDA 216
Fayzullayev Farrux Eshqabulovich. UBAYDULLAXONNING MUHAMMAD SHAYBONIYXON YURISHLARIDA ISHTIROKI 223
Xayrullayeva Iroda Faxriddinovna. HIND XOTIN-QIZLAR TA’LIMI EVOLYUSIYASI (JAMMU VA KASHMIR MISOLIDA) 230

Xakimova Nigora. ZAMONAVIY TADQIQOTLARDA «MAHOSIN» ASARI O‘RGANILISHINING TAHLILI 237
Xusnutdinov Flipp Romanovich. МЕЖДУ ПОЭЗИЕЙ И ПОЛИТИКОЙ: ПОЧЕМУ ЛИДЕР ТУРКЕСТАНСКОЙ ДИАСПОРЫ В САУДОВСКОЙ АРАВИИ УПОДОБЛЯЛ СОВЕТСКОЕ ГОСУДАРСТВО СОВЕ? 242
Ermatova Mushtariy Abdulla qizi. QO‘QON XONLIGINI O‘RGANISHGA OID YANGICHA QARASH VA YONDASHUVLAR 248
Yakubov Qahramon Karimdjanovich. XIVA XONLIGI MADRASALARI TARIXINING ZAMONAVIY TARIXSHUNOSLIKDA YORITILISHI: YANGICHA YO‘NALISH VA YONDASHUVLAR 254
Qorayev Sherxon Po‘latxonovich. MANBALARDA BUXORO AMIRI ABDULAHADXON IJODI VA ADABIY KECHALARI TARIXI 262
G‘oyibnazarova Mahmuda O‘ktamjon qizi. “OYINA” JURNALIDA TURKISTONDAGI IQTISODIY MASALALARNING YORITILISHI 267
G‘ofurov Jasur Isaqovich. USTRUSHONA QISHLOQ MAKONLARINING ME’MORIY – QURILISH LOYIHASI VA USULLARI XUSUSIDA (V-VIII ASRLAR) 272
Abdupattaev Mo‘min Mirzo Murodjon o‘g‘li. MUHAMMAD IBN AHMAD XORAZMIYNING DINSHUNOSLIKKA OID QARASHLARI..... 278

«SHARQSHUNOSLIK SOHALARINI TADQIQ ETISHNING DOLZARB MASALALARI» MAVZUSIDA YOSH SHARQSHUNOSLARNING AKADEMIK UBAYDULLA KARIMOV NOMIDAGI XIX RESPUBLIKA ILMIY–AMALIY KONFERENSIYASI

TO‘PLAMI

Muharrir
Bunyod Pattayev

Badiiy muharrir
Murodillo Rahmonov

Musahhih
Jasur Qutbiddinov

Sahifalovchi
Doniyor Murodov

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti Ilmiy kengashining 2024-yil 3-maydagi 5-sonli majlisi qarori asosida nashrga tavsiya etilgan.

Nashriyot litsenziyasi № 7538, 25.05.2022-y.
20.05.2023-yilda bosishga ruxsat etildi.
Qog‘oz bichimi 60x84 $^{1}/_{16}$. “Cambria” garniturasi.
Shartli bosma tabog‘i 20. Adadi: nusxa.
Buyurtma raqami №: 14-24.
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
“Fan” nashriyoti davlat korxonasida
nashrga tayyorlandi va chop etildi.
100047, Toshkent sh., Yahyo G‘ulomov ko‘chasi, 70-uy. Tel.:
+99899 7917555, +99871 2622154